


Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-sentyabrda 2307 ta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,7 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (30.6 %), savdo sohasida (22.7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (10.3 %), qurilishda tarmog'ida (7.3%), yashash va ovqatlanishda (3.9 %), tashish va saqlashda (4.1 %) va (16,6 %) boshqalarda tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–sentyabrida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:
– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2593.8 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 69.7 %) yoki 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 107,5 %ni tashkil qildi;



– 835,7 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 21,6 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 144,6 %ni tashkil qildi;



– 1243,7 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 94,2 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar– sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 104,7 % ni tashkil qildi;



– 3051,9 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyatda jami xizmatlar xajmining 70,3 %), 2017 yilning yanvar–sentyabrda nisbatan o`shish sur`ati 114,7 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 92,6 % yoki 5206,9 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 105,0 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 143,9 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 83,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 71,1 % ga ko`p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 106,2 %ga (viloyatda jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 94,1 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 105,8 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 88,4 %) ko`payishi ta`minlandi;


Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (1181,3 mlrd.so`m), Namangan.t (310,1 mlrd.so`m) va Uchqo`rg`on (179,3 mlrd.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati

mlrd.sum



2018 yil yanvar- sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (322,2 mlrd.so'm), Norin (211,4 mlrd.so'm) va To'raqo'rg'on (289,8 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar- sentyabrda kichik tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Namangan viloyati	69,7	94,2	70,3
Kosonsoy	30,6	100,0	86,1
Mingbuloq	98,6	100,0	89,0
Namangan	87,2	100,0	87,4
Norin	72,7	100,0	90,1
Pop	33,5	60,4	75,5
To'raqo'rg'on	82,3	100,0	67,1
Uychi	84,2	100,0	85,0
Uchqo'rg'on	53,7	100,0	85,4
Chortoq	100,0	100,0	75,3
Chust	81,1	100,0	79,8
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	88,1
Namangan sh	65,5	87,6	57,3

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Yangiqo'rg'on (100,0%), Chortoq (100,0 %), va Chust (91,1 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Norin(90,0), Kosonsoy (86,1%), Mingbuloq (89,0%), Namangan (87,0%), Uychi (85,0%), Uchqo'rg'on (85,0%), Chortoq (75,0%), Yangiqo'rg'on (88,1%), tumanlari tashkil etadi.

Qurilish sohasida Kosonsoy, Mingbuloq, Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Yangiqo'rg'on (100,0 %), tumanlarida tashkil etadi.

2018 yilning yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 69,7 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-sentyabrida 70,3 %). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.


2018 yilning yanvar- sentyabrda kichik tadbirkorlikning demografiyasi

	<i>01.10.2018 holatiga r o'yhatdan o'tganlar</i>	<i>01.10.2018 Faoliyatli</i>	<i>Foizda</i>
Namangan viloyati	17940	16898	94,2
Mingbuloq	642	635	98,9
Kosonsoy	1009	970	96,1
Namangan	1323	1259	95,2
Norin	645	622	96,4
Pop	850	779	91,6
To'raqo'rg'on	1084	1004	92,6
Uychi	1037	1030	99,3
Uchqo'rg'on	812	787	96,9
Chortoq	862	825	95,7
Chust	1463	1370	93,6
Yangiqo'rg'on	783	731	93,4
Namangan sh	7430	6886	92,7


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil III - chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.




Kuzatuv ma'lumotlari tahlili sanoatda respondentlarning 35,6 % iqtisodiy vaziyatni – qulay, 51,1 % esa qoniqarli va 12,4% qoniqarsiz deb hisoblandi.




Qurilishda respondentlarning 41,8 % iqtisodiy vaziyatni – qulay, 44,8 % esa qoniqarli va 13,4% qoniqarsiz deb hisoblandi.




Qishloq, o'rmon va balqchilik xo'jaligida respondentlarning 21,1 % iqtisodiy vaziyatni – qulay, 71,1 % esa qoniqarli va 7,9% qoniqarsiz deb hisoblandi.



Savdoda respondentlarning 35 % iqtisodiy vaziyatni – qulay, 53 % esa qoniqarli va 12% qoniqarsiz deb hisoblandi.



Xizmatlarda respondentlarning 50 % iqtisodiy vaziyatni – qulay, 43,5 % esa qoniqarli va 6,5% qoniqarsiz deb hisoblandi.



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.